



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 80 sahifa,
1-oktyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapiirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

*Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361



MUNDARIJA

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNI KAMAYTIRISHDA PSIXOKORREKSIYA DASTURLARINING SAMARADORLIGI VA IJTIMOY AHAMIYATI.....	8
Tursunova Ozoda Abdullayevna	
O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: FUQAROLIK JAMIYATI.....	14
Abdikadirov Umidjon Ruzbayevich	
TALABALARDA KASBIY MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI	18
Ayakulov Ulug'bek Abdug'affor o'g'li	
TALABALARDA LIDERLIK XUSUSIYATINING NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI.....	22
Sobitova Shaxnoza Shokir qizi	
O'SMIRLARDA TURLI XIL YOT G'OYALARGA BERILISHNING AYRIM IJTIMOY-PSIXOLOGIK MASALALARI	27
Tulyaganova G.O.	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDAGI O'QUVCHILARNING O'QUV MOTIVATSIYASI VA STRESS DARAJASI MUNOSABATI.....	31
Xodjayeva Dilnovoz Djumoyevna	
OILA-TURMUSH DOIRASIDAGI VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA JINOYATLARNING KELIB CHIQISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SHAXSNING HULQ-ATVORIDAGI XUSUSIYATLARI	36
Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna	
PSIXOGISTALOGIYANING YANGI YO'NALISH SIFATIDA YUZAGA KELISHI ZARURATI VA ILMIY ASOSLARI	41
Azimov.J.S., Melibayeva R.N.	
KONSTRUKTIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH.....	44
Kurbonova Mushtariybegim Baxtiyorjon qizi	
BO'LAJAK KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA KASBIY IDENTIFIKATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	47
Kurbonov Munis Umirbekovich	
BOLALARDA KOGNITIV JARAYONNING RIVOJLANISHI.....	52
Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi	
SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING TURLARI VA YOSHLARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIK XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI	56
Ismailov Avazbek Axadjon o'g'li	
PROFIL ORTIDAGI "MEN" RAQAMLI SHAXSIYAT VA UNING PSIXOLOGIK OQIBATLARI.....	60
Azizova Shodiya Utkur qizi, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	
OILA HAYOTIDA AYOLNING IJTIMOY ROL IDENTIFIKATSIYASI: PSIXOLOGIK TAHLIL.....	63
Xujayeva Zarnigor Muzaffar qizi	
YOSH MUTAXASSISLARINING KASBIY MOSLASHUV MEXANIZMLARI	68
Shodiyeva Rayhon Saydullayevna	
SALBIY EMOTSIONAL KECHINMALARNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI	75
Mirabdullayeva Sh. A.	

YOSH MUTAXASSISLARNING KASBIY MOSLASHUV MEXANIZMLARI

Shodiyeva Rayhon Saydullayevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh mutaxassislarning kasbiy moslashuvini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va trening dasturi ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqotda kasbiy moslashuvning motivatsion, kognitiv, emotsional, kommunikativ, ijtimoiy-identifikatsion va refleksiv mexanizmlari o'zaro integratsiyada ishlashi isbotlab berilgan. "Yosh mutaxassislarning uchun psixologik moslashuv" trening dasturi 18 soatlik kompleks mashg'ulotlardan iborat bo'lib, unda refleksiya, self-assessment, motivatsion vizualizatsiya, kognitiv-behavioral texnikalar, gamifikatsiya va ijobiy psixologiya metodlari qo'llanilgan. Tadqiqot natijalari trening dasturining yosh mutaxassislarning kasbiy barqarorligini, emotsional muvozanatini va jamoada samarali ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: kasbiy moslashuv, yosh mutaxassis, psixologik mexanizmlar, trening dasturi, motivatsiya, refleksiya, ijtimoiy identifikatsiya.

Abstract: This article presents a scientific analysis of the psychological mechanisms and training program designed to develop young specialists' professional adaptation. The study identifies that motivational, cognitive, emotional, communicative, social-identification, and reflexive mechanisms function in an integrated system that ensures successful professional adjustment. The developed training program, "Psychological Adaptation for Young Specialists," consists of 18 hours of interactive sessions and incorporates reflection, self-assessment, motivational visualization, cognitive-behavioral techniques, gamification, and positive psychology. The findings reveal that the program effectively enhances emotional stability, professional motivation, and teamwork skills among young professionals, contributing to their long-term occupational success.

Key words: professional adaptation, young specialists, psychological mechanisms, training program, motivation, reflection, social identification.

Аннотация: В данной статье проведён научный анализ психологических механизмов и программы тренинга, направленных на развитие профессиональной адаптации молодых специалистов. Установлено, что мотивационные, когнитивные, эмоциональные, коммуникативные, социально-идентификационные и рефлексивные механизмы функционируют во взаимосвязи, обеспечивая успешную профессиональную интеграцию личности. Разработанная программа тренинга «Психологическая адаптация для молодых специалистов», рассчитанная на 18 часов, включает методы рефлексии, самооценки, мотивационной визуализации, когнитивно-поведенческой терапии, геймификации и позитивной психологии. Результаты исследования показали, что данная программа способствует повышению эмоциональной устойчивости, профессиональной мотивации и эффективности взаимодействия молодых специалистов в коллективе.

Ключевые слова: профессиональная адаптация, молодые специалисты, психологические механизмы, тренинг, мотивация, рефлексия, социальная идентификация.

KIRISH

Kasbiy moslashuv – yosh mutaxassisning yangi mehnat sharoitlariga, professional talablar tizimiga va ijtimoiy muhitga kirib borish jarayoni bo'lib, u shaxsning psixologik barqarorligi, kasbiy identifikatsiyasi va kelajakdagi professional muvaffaqiyatining poydevorini tashkil etadi. Bu jarayonni ilmiy nuqtai nazardan chuqur o'rganish shaxsning kasbiy rivojlanishini tushunish va uni samarali boshqarish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot ishimizda kasbiy moslashuvning psixologik mexanizmlari shaxsiy resurslar, ijtimoiy munosabatlar va kasbiy tajribalar o'zaro uyg'unlashuvi natijasida shakllanishi mumkinligi ilmiy va empirik asoslar orqali tasdiqlandi. Bunda kasbiy moslashuv mexanizmlari ko'p qirrali bo'lib, shaxsning kognitiv, motivatsion, emotsional, kommunikativ, va ijtimoiy identifikatsion, refleksiv darajalarida namoyon bo'ladi.



Quyida ushbu kasbiy moslashuv mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi.

1. Motivatsion mexanizm

Kasbiy moslashuvning asosiy harakatlantiruvchi kuchi – motivatsiyadir.

Ichki motivatsiya (kasbga bo'lgan qiziqish, o'zini namoyon qilish ehtiyoji, professional o'sish istagi) – barqaror va uzoq muddatli moslashuvni ta'minlaydi.

Tashqi motivatsiya (maosh, ijtimoiy maqom, rag'batlar) – qisqa muddatda faollikni oshiradi, biroq ichki ehtiyoj bilan mustahkamlanmasa, tez pasayadi.

Masalan, A.K. Markova ta'kidlaganidek, kasbiy shakllanish jarayoni shaxsning motivatsion sohasi bilan chambarchas bog'liq. Motivatsiya qanchalik barqaror bo'lsa, moslashuv shunchalik muvaffaqiyatli kechadi.

2. Kognitiv mexanizm

Yosh mutaxassis yangi kasbiy muhitga kirganda tezkor bilim o'zlashtirishga majbur bo'ladi. Bu jarayon kognitiv moslashuv orqali amalga oshadi:

Bilimlarni integratsiya qilish – nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish.

Kreativ tafakkur – muammoli vaziyatlarga yangicha yondashuv topish qobiliyati.

Metakognitiv ko'nikmalar – o'z fikrlash jarayonini tahlil qilish, xatolarni anglab tuzatish.

L.S. Vygotskiy va A.N. Leontyevning faoliyat nazariyasiga ko'ra, kognitiv jarayonlar faoliyatning motivlari va maqsadlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular kasbiy moslashuvning ilmiy asosini tashkil etadi.

3. Emotsional mexanizm

Moslashuv jarayoni odatda stress va emotsional tanglik bilan kechadi. Shu bois emotsional barqarorlik yosh mutaxassis uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Stressni boshqarish – Lazarusning kognitiv baholash modeliga ko'ra, shaxs stress manbasini qanday idrok etishi va unga qanday javob qaytarishi moslashuv muvaffaqiyatini belgilaydi.

Emotsional intellekt – o'z emotsiyalarini va boshqalar hissiyotini anglab, ularga mos javob berish qobiliyati ijobiy ijtimoiy aloqalarni ta'minlaydi.

Pozitiv affektlar (optimizm, umid, ijobiy munosabat) – moslashuvni tezlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Emotsional mexanizmlar beqaror bo'lsa, shaxsda xavotir, ishonchsizlik va professional kuyish xavfi kuchayadi.

4. Kommunikativ mexanizm

Kasbiy muhit doimo ijtimoiy tizim sifatida qaraladi. Shu bois yosh mutaxassisning moslashuvi uning kommunikativ kompetensiyalariga bevosita bog'liq:

Verbal va nonverbal muloqot – samarali aloqalar o'rnatish qobiliyati.

Nizolarni konstruktiv hal etish – ijtimoiy muhitdagi qarama-qarshiliklarni boshqarish.

Hamkorlik ko'nikmalari – jamoaviy faoliyatda muvofiqlashuv.

A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, shaxs kuzatuv va taqlid orqali ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi. Shu bois kommunikativ mexanizm kasbiy moslashuvning ijtimoiy bazasini yaratadi.

5. Ijtimoiy-identifikatsion mexanizm

Moslashuvning yuqori bosqichida shaxs jamoaning qadriyatlarini qabul qiladi va o'zini shu jamoa bilan identifikatsiya qiladi.

Kasbiy identifikatsiya – o'zini kasbiy jamoaning to'laqonli a'zosi sifatida anglash.

Rollarni o'zlashtirish – bir vaqtning o'zida pedagog, hamkasb, bo'ysunuvchi va etakchi sifatida turli rollarni bajarish.

Tashkilot qadriyatlari bilan uyg'unlik – shaxsiy maqsadlarning mehnat tashkiloti maqsadlari bilan birlashuvi.

Bu mexanizm samarali ishlamaganda, shaxs o'zini begona his qiladi, bu esa "ijtimoiy ajralish" holatiga olib keladi.

6. Refleksiv mexanizm

Refleksiya – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini baholash va tahlil qilish jarayonidir.

O'z faoliyatini kuzatish va baholash – xatolarni tahlil qilish, yutuqlarni anglash.

Shaxsiy rivojlanish strategiyasi – kelajakdagi kasbiy o'sish yo'lini belgilash.

Professional refleksiya – o'qituvchilik yoki mutaxassislik faoliyatini doimiy takomillashtirish.

Refleksiv mexanizm mavjud bo'lmaganda, yosh mutaxassis xatolarni qayta takrorlaydi va kasbiy o'sishda turg'unlik yuz beradi.

Mexanizmlarning o'zaro ta'siri

Amaliy psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kasbiy moslashuv mexanizmlari izolyatsiyada emas, balki kompleks tarzda ishlaydi. Masalan:

Motivatsion mexanizm kognitiv faoliyatni faollashtiradi.

Emotsional barqarorlik kommunikativ ko'nikmalarning samaradorligini oshiradi.

Refleksiya esa barcha jarayonlarning sifatini nazorat qiladi.




Shunday qilib, mexanizmlar tizimli birlikda shaxsning professional integratsiyasini ta'minlaydi.

Kasbiy moslashuvning psixologik mexanizmlari – bu yosh mutaxassisning yangi kasbiy muhitga kirib borishini ta'minlovchi motivatsion, kognitiv, emotsional, kommunikativ, ijtimoiy-identifikatsion va refleksiv jarayonlar tizimidir. Ularning uyg'unlashuvi:

shaxsning professional o'sishini tezlashtiradi,
jamoaga integratsiyani engillashtiradi,
stressni kamaytiradi,
kasbiy identifikatsiyani shakllantiradi.

Moslashuv mexanizmlarini chuqur o'rganish psixologiya fanida nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki ta'lim amaliyotida ham yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash, mentorlik dasturlari va psixologik treninglarni samarali tashkil etish uchun zaruriy ilmiy asosni beradi.



1-rasm. Yosh mutaxassislarni yangi jamoaga moslashuvini rivojlantirishning psixologik mexanizm bosqichlari

Yosh mutaxassislarni yangi jamoaga moslashuvini rivojlantirishning psixologik mexanizmi uchun xizmat qiluvchi ilmiy-amali asoslar quyidagilardan iborat.

1. Dastlabki tayyorgarlik bosqichi

Yosh mutaxassislarning yangi jamoaga moslashuv jarayoni avvalo ularning psixologik tayyorgarligi va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdan boshlanadi. Bu bosqich shaxsning kelajakdagi faoliyatida muvaffaqiyatli integratsiya qilinishiga zamin yaratadi. Mutaxassisning ichki motivatsiyasi, o'z qobiliyatlariga ishonchi hamda o'z-o'zini samarali baholash ko'nikmalari aynan shu davrda shakllanishi zaruriy ahamiyat kasb etadi.

A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga binoan, shaxsning yangi sharoitlarda qanday xulq-atvor namoyon etishi ko'p jihatdan atrofda odamlarning tajribasi va ijtimoiy modellarni kuzatish hamda ularga taqlid qilish orqali shakllanadi. Shu bois, dastlabki bosqichda yosh mutaxassislarning nafaqat nazariy bilimlarga, balki o'z sohasidagi muvaffaqiyatli namunalari va rollarga asoslanishi muhimdir.

Kasbiy maqsadlarni aniq belgilash, ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish va bu yo'lga zarur bo'lgan bilim, ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish — mazkur bosqichning eng asosiy tarkibiy qismidir. Shu tarzda mutaxassis o'z kasbiy faoliyatini ongli ravishda yo'naltiradi va o'zini kelajakdagi professional muvaffaqiyatlarga tayyorlaydi.

2. Jamoaga kirish bosqichi

Yosh mutaxassisning yangi jamoaga moslashuv jarayoni, avvalo, uning ish joyidagi tashkiliy madaniyat, xizmat vazifalari, rasmiy qoidalar hamda norasmiy ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan tanishishi orqali boshlanadi. Bu bosqichda shaxs jamoa a'zolari bilan dastlabki muloqotlarni yo'lga qo'yadi, guruh qadriyatlarini va xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtiradi hamda o'z rolini belgilab oladi. Aynan shu jarayon kelajakdagi kasbiy faoliyat samaradorligi uchun psixologik poydevor vazifasini bajaradi.



L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy yondashuviga ko'ra, insonning psixik rivojlanishi bevosita ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sir jarayonida shakllanadi. Demak, yosh mutaxassis yangi jamoa bilan tanishar ekan, uning tafakkuri, qadriyatlari va kasbiy identifikatsiyasi ham shu muhitning madaniy vositalari ta'sirida rivojlanadi.

Shuningdek, A.N. Leontyevning faoliyat nazariyasida ta'kidlanganidek, inson faoliyati motivlar, maqsadlar va vazifalar tizimi orqali tashkil topadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, jamoaga kirish bosqichida mutaxassis nafaqat yangi ish sharoitiga moslashadi, balki o'z kasbiy motivlarini jamoaning umumiy maqsadlari bilan uyg'unlashtirishga intiladi.

Mazkur bosqichning yana bir muhim jihati — bu ijtimoiy muloqot. Shaxs jamoa bilan o'zaro hamkorlik qilgan sayin, u o'zining kasbiy imkoniyatlarini namoyon etadi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdan foydalanadi va o'zining yangi sharoitdagi rolini mustahkamlaydi. Aksincha, samarali ijtimoiy muloqot shakllanmasa, yosh mutaxassisda yakkalanish, begonalashuv yoki ijtimoiy ajralish xavfi kuchayadi.

Shu tariqa, jamoaga kirish bosqichi — bu faqatgina tashkiliy qoidalarga moslashuv emas, balki shaxsning ijtimoiy-madaniy tizim bilan uyg'unlashuvi, o'z kasbiy identifikatsiyasini shakllantirish va kelgusidagi muvaffaqiyatli faoliyatga tayyorlanish jarayonidir.

3. Moslashuv davri

Yosh mutaxassisning yangi kasbiy muhitga kirib borish jarayonida eng murakkab va sinovli bosqichlardan biri — bu moslashuv davridir. Ushbu davrda shaxs yangi kasbiy rollarni qabul qilish, ularga moslashish, turli xil stress omillari bilan kurashish va mavjud ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan samarali foydalanishni o'rganadi. Aynan shu jarayonlar kasbiy barqarorlik va uzoq muddatli professional muvaffaqiyat uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

R. Lazarus va S. Folkmaning (1984) stress va coping modeliga ko'ra, shaxs stressli vaziyatlarga duch kelganida avvalo ularni kognitiv baholashdan o'tkazadi, ya'ni vaziyatni xavf, imkoniyat yoki qiyinchilik sifatida idrok etadi. Shunga qarab, u ikki turdagi moslashuv strategiyasidan foydalanadi:

Muammoni hal qilishga yo'naltirilgan strategiyalar — stress manbasini to'g'ridan-to'g'ri bartaraf etishga qaratilgan faol xatti-harakatlar (masalan, yangi vazifalarni o'rganish, malakani oshirish).

Emotsional reaksiyani boshqarishga yo'naltirilgan strategiyalar — stressning salbiy hissiy oqibatlarini engillashtirishga xizmat qiladi (masalan, ijobiy fikrlash, hissiy qo'llab-quvvatlashdan foydalanish).

Moslashuv davrining muvaffaqiyati ko'p jihatdan jamoaning qo'llab-quvvatlash tizimiga bog'liq. Hamkasblar tomonidan beriladigan emotsional yordam (hamdardlik, ruhiy ko'mak) va instrumental yordam (amaliy maslahat, tajriba almashish) yosh mutaxassisning yangi vaziyatni engib o'tish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi.

Bundan tashqari, A. Banduraning o'z-o'zini samaradorlik nazariyasi ham moslashuv jarayonini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Shaxs o'z imkoniyatlariga ishonch bildirsa, u stress vaziyatlarini muvaffaqiyatli engib o'tishi va yangi sharoitda faol moslashuv ko'rsatishi ehtimoli yuqori bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, moslashuv davri faqat qiyinchiliklarni engib o'tish bosqichi emas, balki shaxsning professional identitetini shakllantirish, psixologik barqarorlikni rivojlantirish va yangi ijtimoiy rollarni o'zlashtirish davri hamdir. Agar ushbu bosqich muvaffaqiyatli kechsa, yosh mutaxassis o'z jamoasida barqaror psixologik holatni saqlab qoladi, kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishadi va ijtimoiy jihatdan ham integratsiyalashadi.

4. Faol ishtirok bosqichi

Yangi jamoaga muvaffaqiyatli moslashgan mutaxassis ushbu davrda jamoaviy faoliyatda tobora faolroq ishtirok eta boshlaydi. Bu bosqichda u nafaqat o'zining kasbiy vazifalarini bajaradi, balki jamoa ichida hamkorlik, o'zaro yordam va birgalikda qaror qabul qilish jarayonlarida ham muhim rol o'ynaydi. Mutaxassisning faol ishtiroki jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro ta'sir samaradorligini oshiradi va ijtimoiy-psixologik iqlimni barqarorlashtiradi.

Tajfel va Turnerning ijtimoiy identifikatsiya nazariyasiga ko'ra, shaxs o'zini ma'lum bir guruhning teng huquqli a'zosi sifatida anglaganida, unda ijtimoiy o'ziga xoslik (social identity) shakllanadi. Bu jarayon mutaxassisning nafaqat shaxsiy, balki kasbiy o'zini anglashini ham mustahkamlaydi. Guruh bilan o'zini identifikatsiya qilgan shaxs jamoa qadriyatlari, me'yorlari va maqsadlariga nisbatan mas'uliyatni chuqur his eta boshlaydi.

Shuningdek, Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, faol ishtirok jarayoni shaxsning ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishi va ularni amaliy faoliyatda qo'llashini ta'minlaydi. Bu esa mutaxassisning kasbiy kompetensiyalarini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Hamkorlik asosida olib boriladigan faoliyat jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro ishonchni kuchaytiradi, emotsional qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantiradi va shaxsning kasbiy obro'sini oshirishga xizmat qiladi. Natijada mutaxassisning jamoada ijobiy mavqei mustahkamlanadi va u o'zini muhim a'zo sifatida his etadi.

5. Kasbiy integratsiya bosqichi

Bu bosqichda shaxs to'liq jamoa a'zosi sifatida tan olinadi va uning faoliyati nafaqat kasbiy samaradorlik, balki jamoaning umumiy rivojlanishiga qo'shgan hissasi bilan ham baholanadi. Shaxs o'zining kasbiy rolini mustahkam egallab, barqaror kasbiy identifikatsiyaga erishadi. Shu bilan birga, u nafaqat o'z faoliyatida muvaffaqiyat qozonadi, balki shaxsiy o'sish va o'zini rivojlantirish jarayonida ham sezilarli natijalarga erishadi.



A. Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasi nuqtai nazaridan, integratsiya bosqichi insonning eng yuqori darajadagi ehtiyoji — o'zini ro'yobga chiqarish (self-actualization) bilan mos keladi. Bu holatda shaxs o'zining qobiliyatlari, bilimlari va ichki imkoniyatlarini to'liq ochib bera boshlaydi, ijodkorlik va tashabbuskorlik ko'rsatadi. Mutaxassis o'z faoliyatidan mamnuniyat olishi, o'zini kasbiy jihatdan ahamiyatli va zarur shaxs sifatida his qilishi mazkur bosqichning muhim belgilaridan biridir.

Shuningdek, Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasiga ko'ra, ushbu davrda shaxsning asosiy psixologik vazifasi — mehnat orqali jamiyatga foyda keltirish, samarali faoliyat yuritish va "ijtimoiy ahamiyatlilik" hissini shakllantirishdir. Bu mutaxassisning ijtimoiy moslashuvini to'liq yakunlab, uni jamoa va jamiyatning barqaror, faol a'zosiga aylantiradi.

K. Levinning guruh dinamikasi nazariyasi asosida qaralganda, integratsiya bosqichi shaxsning jamoaviy jarayonlarga to'laqonli qo'shilishi, ichki va tashqi motivatsiya uyg'unlashuvi bilan izohlanadi. Bu esa jamoada emotsional barqarorlik, ishonch va yuqori samaradorlik muhitini yaratadi.

Natijada, kasbiy integratsiya nafaqat shaxsning professional imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqaradi, balki psixologik barqarorlikni, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni va mehnat faoliyatidan qoniqishni ta'minlaydi. Bu bosqich yosh mutaxassisning yangi jamoaga to'liq moslashuvining yakuniy, eng muhim bosqichi sifatida qaraladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotimiz doirasida ishlab chiqilgan "Yosh mutaxassislar uchun psixologik moslashuv" trening dasturi 18 soatga mo'ljallangan bo'lib 1,5 oy davom etadi, har haftada 2–3 ta mashg'ulot o'tkaziladi, har bir mashg'ulot 1–1,5 soat davom etadi. Ushbu parametrlar tadqiqotimiz maqsadiga – yosh mutaxassislarning kasbiy moslashuvini rivojlantirishga erishishga – xizmat qiladi va treningning samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

"Yosh mutaxassislar uchun psixologik moslashuv" nomli trening dasturi

Hafta	Trening bosqichi	Modul / Mexanizm	Mashqlar	Vaqt (soat)	Psixotexnologiya
1	Dastlabki tayyorgarlik	Motivatsion, Kognitiv, Refleksiv	"Mening kasbiy qadriyatlarim" – shaxsiy refleksiya, SWOT tahlil, o'zini baholash	1	Refleksiya, self-assessment, motivatsion vizualizatsiya
1	Dastlabki tayyorgarlik	Motivatsion	"Shaxsiy maqsadlar va motivatsiya" – maqsadni belgilash, vizualizatsiya	1	Maqsad belgilash, affirmatsiyalar
2	Jamoaga kirish	Kommunikativ, Ijtimoiy-identifikatsion, Emotsional	"Tanishing!" – tanishuv mashqi, ishtirokchi profilini taqdim etish	1,5	Interpersonal kommunikatsiya, guruh dinamikasi
2	Jamoaga kirish	Kommunikativ, Ijtimoiy-identifikatsion	Team-building o'yinlar: "Ishchi vazifa", "Sheriklik vazifasi"	1,5	Feedback, nonverbal kommunikatsiya
3	Moslashuv davri	Kognitiv, Emotsional, Refleksiv	Relaxatsiya va nafas olish mashqlari	1,5	Progressiv mushak relaxatsiyasi, meditatsiya
3	Moslashuv davri	Kognitiv, Motivatsion	"Vaziyat tahlili" – real ish vaziyatlarini tahlil qilish	1	Kognitiv-behavioral texnikalar, refleksiya
4	Moslashuv davri	Kognitiv, Refleksiv	"Haftalik rejalashtirish" – faoliyatni ongli rejalashtirish	1,5	Kognitiv trening, refleksiya
4	Moslashuv davri	Emotsional	Stressli vaziyat rolli o'yinlar	1	CBT, emotsional boshqarish texnikasi
5	Faol ishtirok	Kommunikativ, Ijtimoiy-identifikatsion, Motivatsion	"Muammoli vaziyatni hal qilish" – guruh vazifalari	1,5	Gamifikatsiya, interpersonal kommunikatsiya
5	Faol ishtirok	Kommunikativ	Aktiv tinglash va konstruktiv feedback mashqi	1	Feedback texnikalari, kommunikativ trening



5	Faol ishtirok	Motivatsion	“Motivatsion o'yini” – shaxsiy maqsadlar va intilishlar	1,5	Ijobiy psixologiya, vizualizatsiya
6	Kasbiy integratsiya	Refleksiv, Ijtimoiy-identifikatsion, Motivatsion	“Kasbiy vaziyatni echish” – real ish misollari	1,5	Refleksiya, self-assessment, feedback
6	Kasbiy integratsiya	Refleksiv	Professional yo'l xaritasi tuzish	1	Reflektiv trening, maqsad belgilash
6	Kasbiy integratsiya	Barcha mexanizmlar	Yakuniy feedback, o'zini baholash, trening natijalarini tahlil qilish	1,5	Refleksiya, feedback, self-assessment

Trening jarayonida yosh mutaxassislarning kasbiy moslashuvini rivojlantirish uchun turli psixotexnologiyalar qo'llaniladi. Bu texnologiyalar shaxsning motivatsion, kognitiv, emotsional va kommunikativ jarayonlarini uyg'unlashtirishga yordam beradi hamda treningning samaradorligini oshiradi.

Refleksiya psixotexnologiyasining asosiy maqsadi ishtirokchilarga o'z tajribasi, xatti-harakati va hissiyotlarini tahlil qilish orqali o'zini anglash imkoniyatini yaratishdir. Trening davomida refleksiya mashqlari, xususan, mashg'ulot yakunida o'z faoliyatini baholash, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, o'z kasbiy va shaxsiy rivojlanish istiqbollarini belgilash orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, “self-assessment” texnologiyasi ishtirokchilarga shaxsiy kompetensiyalarini aniqlash va ularga mos rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi. Masalan, SWOT tahlil, professional yo'l xaritasi tuzish yoki kompetensiya testlari yordamida ishtirokchilar o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydilar.

Yosh mutaxassislarning ichki motivatsiyasini faollashtirishda motivatsion vizualizatsiya muhim rol o'ynaydi. Bu texnologiya orqali ishtirokchilar maqsadlariga erishishni tasavvur qiladilar, ijobiy natijani ko'zda tasavvur qilish orqali kasbiy intilishlarini kuchaytiradilar. Motivatsion vizualizatsiya mashqlari shaxsning maqsadlariga erishish jarayonida ruhiy tayyorgarlikni oshiradi va kasbiy faollikni rag'batlantiradi.

Trening jarayonida yosh mutaxassislarni stressga chidamlilikni oshirish va emotsional barqarorlikni shakllantirish maqsadida progressiv mushak relaksatsiyasi va nafas olish mashqlari qo'llaniladi. Bu texnologiyalar mushaklarning zo'rliqishini kamaytirishga, stress va charchash holatlarini bartaraf etishga yordam beradi. Moslashuv davrida va real ish vaziyatlarini simulyatsiya qiluvchi mashqlarda bu texnologiyalar keng qo'llaniladi.

Shuningdek, kognitiv texnikalar muammoli vaziyatlarda ongli qaror qabul qilishni rag'batlantiradi va salbiy fikrlashni kamaytirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiya yordamida ishtirokchilar vaziyatlarni tahlil qiladi, muammoli ish vaziyatlarini echadi va ijobiy natijalarni ko'zlab qaror qabul qilishni o'rganadilar.

Treningni qiziqarli va interaktiv qilish uchun gamifikatsiya texnologiyasi qo'llaniladi. Bu texnologiya mashqlarni o'yin shakliga aylantiradi, ishtirokchilarni rag'batlantiradi va motivatsiyani oshiradi. Masalan, muammoli vazifalarni guruh bilan echish, o'zaro bellashuvlar va jamoaviy o'yinlar orqali mashg'ulotlar samaradorligi oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yosh mutaxassislarning jamoada samarali ishlashini rivojlantirish uchun interpersonal va kommunikativ texnikalar muhim hisoblanadi. Bu texnologiyalar ishtirokchilarga aktiv tinglash, konstruktiv feedback berish va guruhdagi rollarni aniqlash orqali samarali muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ijtimoiy-identifikatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlash orqali shaxsning jamoaga singib ketishi va kasbiy identitetini mustahkamlashi ta'minlanadi.

Oxirgi jihat sifatida, ijobiy psixologiya texnologiyasi ishtirokchilarning ichki resurslarini faollashtiradi, stressni kamaytiradi va motivatsiyani oshiradi. Trening mashqlarida ijobiy fikrlashni rag'batlantiruvchi o'yinlar, affirmatsiyalar va ijobiy natijalarni tahlil qilish mashqlari orqali ishtirokchilar o'z-o'zini rag'batlantirishni o'rganadilar. Shu tarzda, mazkur psixotexnologiyalar bir-biri bilan uyg'un ishlaydi va yosh mutaxassislarning kasbiy moslashuvini rivojlantirish, emotsional barqarorlikni oshirish, jamoada samarali ishlash va kasbiy identitetni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu tarzda, bizning tadqiqotimiz doirasida ishlab chiqilgan “Yosh mutaxassislar uchun psixologik moslashuv” trening dasturida qo'llangan psixotexnologiyalar bir-biri bilan uyg'un ishlaydi va yosh mutaxassislarning kasbiy moslashuvini rivojlantirishga samarali xizmat qiladi. Trening jarayonida refleksiya, self-assessment, motivatsion vizualizatsiya, progressiv mushak relaksatsiyasi, kognitiv-behavioral texnikalar, gamifikatsiya, kommunikativ va ijobiy psixologiya metodlari muntazam ravishda qo'llanilishi natijasida ishtirokchilarning emotsional barqarorligi sezilarli darajada oshadi. Shu bilan birga, ularning jamoada samarali ishlash ko'nikmalari rivojlanadi, ijtimoiy-



identifikatsion jarayonlar mustahkamlanadi va kasbiy identitet shakllanadi, bu esa yosh mutaxassislarni professional muhitga muvaffaqiyatli integratsiya qilish imkonini yaratadi.

Bizning dasturimizda qo'llaniladigan texnologiyalar ishtirokchilarga o'zini anglash, shaxsiy va kasbiy resurslarini aniqlash, faoliyat strategiyalarini rejalashtirish va kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilashga rag'batlantiradi. Mashqlar orqali ishtirokchilar o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, ijobiy xatti-harakatlarni shakllantiradi, stressni boshqarishni o'rganadi va qaror qabul qilish jarayonlarida ongli yondashuvni rivojlantiradi.

Natijada, bizning tadqiqotimizdagi trening dasturi yosh mutaxassislarning ish muhitiga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlash bilan birga, ularning professional kompetensiyalarini sezilarli darajada oshiradi, kasbiy motivatsiyasini kuchaytiradi va shaxsning kasbiy o'sish potentsialini maksimal darajada ochishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, biz tomonidan ishlab chiqilgan dastur nafaqat amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi, balki shaxsiy o'sish va professional barqarorlikni ta'minlovchi kompleks psixologik asos yaratadi, bu esa yosh mutaxassislarning kelajakdagi ish faoliyatidagi muvaffaqiyatini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bandura, Albert. *Social Learning Theory*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977.
2. Lazarus, Richard S., and Susan Folkman. *Stress, Appraisal, and Coping*. Springer, 1984.
3. Leontiev, Aleksei N. *Activity, Consciousness, and Personality*. Prentice-Hall, 1978.
4. Vygotsky, Lev S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press, 1978.
5. Markova, A. K. *Psixologiya professionalizma*. Moscow: Znanie, 1996.
6. Maslow, Abraham. *Motivation and Personality*. 3rd ed., Harper & Row, 1987.
7. Erikson, Erik H. *Identity: Youth and Crisis*. W. W. Norton & Company, 1968.
8. Tajfel, Henri, and John C. Turner. "The Social Identity Theory of Intergroup Behavior." In *Psychology of Intergroup Relations*, edited by S. Worchel and W. G. Austin, Nelson-Hall, 1986, pp. 7–24.
9. Bandura, Albert. *Self-Efficacy: The Exercise of Control*. W. H. Freeman, 1997.
10. Karimova, V. M. *Ijtimoiy psixologiya asoslari*. Toshkent: O'qituvchi, 2010.
11. Rasulova, M. R. "Yosh mutaxassislarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini rivojlantirishda treninglarning roli." *Psixologiya va Pedagogika Ilmlari Jurnal*, vol. 5, no. 2, 2023, pp. 55–63.
12. Yuldasheva, N. S. "Kasbiy moslashuvning psixologik asoslari." *O'zbekiston Pedagogik Jurnal*, no. 4, 2022, pp. 40–47.
13. Shavkatova, D. "Yosh pedagoglarning kasbiy o'sishida refleksiya mexanizmlarining o'rni." *Ta'lim va Tarbiya Ilmiy Jurnal*, no. 1, 2024, pp. 25–32.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.